O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida Xitoy Xalq Respublikasi TIVning Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakili Yue Syaoyun, boshchiligidagi delegatsiya bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv haqida MA’LUMOT

2023 yil 09 mart kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga, Xitoy Xalq Respublikasi TIVning Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakili Yue Syaoyun, TIV birinchi sekretari Sun Yuyfen va Sun Penchjoular tashrif buyurdilar.

Mehmonlar o‘z tashriflarini Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan tanishishdan boshladilar.

Uchrashuv davomida markaz direktori O.Ro‘ziyev markazga tashrif buyurgan mehmonlarga tashrif uchun minnatdorchilik bildirib, bugungi kunda markazda 199 nafar afg‘on yigit-qizlari tahsil olayotganlarni ta’kidlab o‘tdi.

Shu bilan birga mehmonlarni 750 o‘rinli o‘quv binosi hamda 450 o‘rinli talabalar turar joyining binosida bir vaqtning o‘zida ham o‘qish, ham yashashlari uchun barcha sharoitlar mavjudligi hamda talabalar uchun yaratilgan dam olish xonalari, ARM markazi, internet tizimi va kompyuter xonalari bilan tanishtirdi.

Shuningdek, markaz professor o‘qituvchilar va talaba-yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi. Fikr va mulahazalar bildirildi.


Mehmonlar afg`onistonlik talaba-yoshlarga markazda yaratilgan sharoitlardan unumli foidalangan holda yaxshi o’qib kelgusida Afg’onistonning istiqboli uchun yetuk mutaxassislar bo’lib xizmat qilishlariga ishonch bildirishlari haqida o`z ijobiu fikirlarni bildirib o’tdilar.

Shuningdek, XXR vakillari va Markaz rahbariyati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv davomida, markaz rahbariyati tomonidan Yue Syaoyundan, markazning moddiy texnik bazasini yanada boyitish va istiqbolli rejalar asosida bir necha loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik qilishga takliflar berdilar.









O'zbekiston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi









XUSH KELIBSIZ,
AFG'ONISTONLIK DO'STLARIMIZ!
خوش آمدید دوستان
گرامی افغانستانی ما!